ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00195

ABDULLA ORIPOVNING “HIKMAT SADOLARI” TURKUM SHE'RLARIDA PAYG'AMBAR OBRAZINING IFODALANISHI

Nurboy Abdulhakimovich Jabborov
Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Nozima Husniddin qizi Ikromova
Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Abdulla Oripovning qator to`plamlari orasida “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada turkum payg’ambar obrazining ifodalanishi haqida yoritiladi.

Kalit so’zlar. Abdulla Oripov, “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumi, payg’ambar obrazi, hikmatli she’rlar, hadislar.

THE IMAGE OF THE PROPHET IN THE POEMS OF THE SERIES "VOICES OF WISDOM" BY ABDULLA ARIPOV

Nurboy Abdulhakimovich Djabbarov
Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Nozima Khusniddin kizi Ikromova
The 2nd year master student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ABSTRACT

Among Abdullah Oripov's collections the series “Sounds of Wisdom” and the “Book of Hajj” have a special importance. This article discusses the image of Prophet.

Keywords: Abdulla Oripov, a series of books "Sounds of Wisdom" and "Hajj", the image of the Prophet, wise poems, hadiths.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00195

KIRISH

Ma`lumki, payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning sifatlari, xulqlari, fazilatlari Oisha onamiz, sahobalar tomonidan keltirilgan hadislarda, tarixiy kitoblarda yaqqol aks etgan. Ul zotning xulqlari haqida so`zlar ekan, Oisha onamiz: *"Xulqlari Qur`on, ul kishi Qur`on mamnun bo`lgan narsadan mamnun bo`lar, g`azablanganidan g`azablanardilar",* deydi. Demakki, Muhammad s.a.v go`zal axloq egasi, ham shunday axloqlarni kamolga yetkazuvchi ulug` zot bo`lgan edilar. Hadislarda Rasulullohning o`ta kamtar va xokisor hayot kechirganliklari ham ta`kidlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Oripovning "Hikmat sadolari" va "Haj daftari" turkum she`rlarida Allohning Rasuli - payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) siymosi gavdalantirilgan ko`plab she`rlar uchraydi. To`plamdagi she`rlarning aksariyati muborak zotning sifatlarini tavsiflaydi ("Kamolot", "Azroil", "G`iybat", Hordiq", "Vahiy" kabi). Barcha she`rlarda shoir ijodiy niyati (Muhammad (s.a.v)ning nafaqat payg`ambar, balki saxovat va sadoqat egasi, pokiza va kamtar, kechiruvchi va samimiy, har jihatdan komil ekanligini tasvirlash) quyma satrlar, mohirona tanlangan so`zlar orqali namoyon bo`lgan. Tarixiy kitoblarda, hadislarda ushbu mukarram zot haqida keltirilgan manbalar badiiylashtirilib, o`quvchi ko`z o`ngida komil, kamtar, kechirimli, mehribon siymo paydo bo`ladi.

"G`oyat g`arib edi Rasul hujrasi,
Qamish uy edi u, oddiy va faqir"

deya boshlanadi "Kamolot" nomli she`ri. Shoir ul zotning Rasulullohligi, ya`ni Allohning rasuli – elchisi bo`lishdek muborak sharafga ega ekanligiga urg`u berarkan (*Rasul*), shunday ulug` zotning yashash tarzi nihoyatda oddiy bo`lganini ifodalashga urinadi . Tilimizda hujra so`zi *kishi yashaydigan kichkina xona, uycha* ma`nosini ifodalaydi. Misrada uyga nisbatan qo`llangan g`oyat g`arib, oddiy, faqir sifatlari Rasulullohning kamtarona hayotlarini yorqin aks ettirishga xizmat qilgan. Keyingi

Ummatlar so`rashdi: - Gapning sirasi,
Sizga yarashmaydi bu kulba axir misralarida qo`llangan *kulba* so`zi hujra so`zining ma`nodoshi bo`lib, hujradan ko`ra yuqoriroq darajada ma`no ifodalab kelmoqda: *kulba—kichik, ko`rimsiz, bechorahol boshpana*. *(*O`zbek tilining izohli lug`ati) Demak, ushbu birinchi banddayoq nabiyga xos hokisorlik namoyon qilingan.

Ular tag`in dedi: - Siz-ku Payg`ambar,
Tomingiz ne uchun bu qadar pastdir?

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00195

Rasul javob qildi:-Tinglangiz, magar
Balandni istagan balandparastdir.

Muhammad (s.a.v.) haqida yozilgan hadislarda keltirilishicha, ul zot nihoyatda saxiy, kamtar va mehribon, kechirimli zot bo`lganlar va ummatlarni ham o`zlari kabi bo`lishga undaganlar. Quyidagi misralarda ularning ana shunday kamtarlik fazilatlari, moddiy ne`matlarga ruju qo`ymaganliklari namoyon bo`ladi.

Siz salom berdingiz – olgayman alik,
Allohning o`zidir yuksak begumon.
Bandaga joizdir faqat kamtarlik,
Yo`l pastdan boshlanar kamolot tomon

Abdulla Oripov hadislarga murojaat etar ekan, Rasulullohning sunnatlarini bugungi odamlarga eslatib qo`ymoqchi bo`ladi. Bugun “kim o`zar”ga uy qurish, boylikka ko`ngil qo`yish, harom-harijdan hazar qilmaslik, yolg`on, g`iybat avj olib ketgan.

Ruju qilmadilar Hazrat Payg`ambar
Na yuksak saroyga, na oltin taxtga

deb boshlanadi “Ibrat” nomli she`ri. Hadis kitoblarida keltirilishicha, Muhammad (s.a.v.) boshqa payg`ambarlardan olti narsa bilan afzal qilingan. Ular bashariyat uchun yuborilgan va nabiylarning so`nggisi bo`lgan. Ana shunday yuksak sohibine`mat bo`la turib, oddiy turmushga amal qilgan.

Rasul kamtarlikni qilib ixtiyor
To Mahshar bizlarga qoldirdi ibrat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hadislardan birida Allohning Habibi: “Sizdan hech kim toki havoyi nafsi men keltirgan narsaga tobe bo`lmaguncha musulmon bo`lolmaydi” deganlar. Muborak zot bu dunyo fano ekanligi, o`zidan avval o`tgan nabiylar ham turfa sinovlarga dosh berganliklarini, ahli oila va ahli ummatlariga bot-bot ta`kidlaganlar. Yemoqda, dam olmoq, farog`at masalalarida qisqalik tarafdori bo`lganlar. “Hordiq” she`rida nabiyning ana shunday hislatlari yanada yorqin aks etadi. Rasulullоh yo`l yurib charchagan karvonni dam olishga buyuradi va o`zi yerning o`zigagina yotib, biroz vaqt orom olmoqchi bo`ladi.

To`shaksiz, taqirda yotdi yonboshlab,
Bamisli ochundan ko`ngli qolgan qul.
Keldi sahobalar ko`zlarin yoshlab:
-Hech qursa bo`yrada yotingiz Rasul.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00195

Shoir davr va muhit koloritini berish uchun taqir, ochun, bo`yra so`zlaridan foydalanadi.

Rasulullоh dedi: - O`ylamang, also
Fanodan men rohat kutayotirman.
Bu dunyo daraxtning soyasi go`yo,
Men undan ot minib o`tayotirman.

Hadislarda o`tkinchi dunyo sinovlariga bardosh berganlarga ajr borligi keltiriladi. Bu yerda mana shunga ishora mavjud.

Payg`ambarimizning nihoyatda shavqatli zot bo`lganliklari to`g`risida Imom Buxoriydan keltirilgan hadislar bisyor. “Azroil” she`rida ana shu xislatlari namoyon bo`ladi.

Badaviy shaklida kelib Azroil
Muhammadga dedi:- Joningni olgum
Va lekin hurmatga ekansan noil,
Tila, tilagingni do`st bo`lib qolgum.

Nabiy oldiga keluvchi Jabroil notanish odam qiyofasida kelishi hadislarda keltirilgan. Azroil ham bir badaviy (arab qabilasi nomi) ko`rinishida nabiyni dorulbaqoga olib ketishga keladi va so`nggi istaklarini so`raydi.Muhammad (s.a.v) shunda ham o`zlarini emas, ummatlarini o`yladilar:

Yolg`iz o`tinchim bu, qaytarma minba`d,
Mayli, so`ng tepamda ko`ksingni kergil.
Ummatim jonini oson ol faqat,
Uning azobin ham o`zimga bergil.

XULOSA

Shoir hadis va rivoyatlarga tayanib, payg`ambar siymosini aks ettirar ekan, kitobxonni qadamma qadam O`ziga-Yaratganga ergashtiradi. O`quvchisini ham shunchaki Rasulullоh sifatlari, sunnatlari bilan tanishtiribgina qo`ymay, ularga amal qilishga chorlaydi, nabiyni yanada ko`ngillar tubiga joylashga urinadi. Muborak zot sifatlarini kitobxonga o`rnak qilib, o`z-o`zimizni nazorat qilishga, ayni damda qaysi yo`lda borayotganimizni o`ylab olishga undaydi.

Haq sevgay O`ziga yor bandalarni,
Dilida iymoni bor bandalarni,
Takabbur boshlarni pastroqqa egsa,
Yuksakka ko`targay xor bandalarni

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00195

deb yozgandi shoir she`rlaridan birida. Demoqchi bo`lamizki, Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkum she`rlari nafaqat istiqlol baxsh etgan ne`mat mevasi, balki, shoirning tub e`tiqodi samarasi, ko`ngil amridir.

REFERENCES

1. Орипов Абдулла. Хикмат садолари. Инсоф ва диёнат излаб. “Нур”,1993, Б-7.
2. Орипов Абдулла. Танланган асарлар.”Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Т., 2019.
3. Шайҳ Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар. “Hilol-nashr”, T.,2019/263-bet.
4. Imom Buxoriy. “Al jomi` as sahih”, I jild.
5. Nurboy Jabborov “Zamon, mezon, she’riyat” G’afur G’ulom nashriyoti, Toshkent. 2015.
6. Abdulla Oripov. “Haj daftari. Hikmat sadolari” 1992.
7. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G’afur G’ulom nashriyoti, Toshkent. 2001.